

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASHI**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**KARLIBAYEVA GULSHAT XOJABAYEVNA**

**OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH  
USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025-yil**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor on Economical Sciences (DSc)**

**Karlibayeva Gulshat Hojabayevna**

Oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish uslubiyotini takomillashtirish..... 3

**Карлибаева Гулшат Хожабаевна**

Совершенствование методологии финансирования высших учебных заведений ..... 33

**Karlibaeva Gulshat Khojabayevna**

Improving the methodology of financing higher education institutions ..... 67

**E’lon qilingan ishlar ro’uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 73

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASHI**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**KARLIBAYEVA GULSHAT XOJABAYEVNA**

**OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH  
USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025-yil**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/Iqt909 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tiu.uz](http://www.tiu.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))ga joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** **Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Burxanov Aktam Usmanovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sherov Alisher Bakbergenovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ishmanova Dinora Nurmamadovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent


**Yetakchi tashkilot:** **Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi DSc.22/29.12.2023.1.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «18» 10 kuni soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7 uy. Tel.: (99895) 131-55-55, faks: (99895) 131-55-55, e-mail: [info@tiu.uz](mailto:info@tiu.uz).

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( 92 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100114, Toshkent shahri Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7 uy. Tel.: (99895) 131-55-55, faks: (99895) 131-55-55, e-mail: [info@tiu.uz](mailto:info@tiu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «26» 09 kuni tarqatildi.

2025 yil «02» 08 dagi «47» raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.X. Jumayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

**A.T. Absalamov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,  
dotsent

**D.A. Raxmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahondagi rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning samarali yondashuvlari ularning mustaqilligini mustahkamlash, barqarorligi va innovatsion rivojlanishiga xizmat qilmoqda, bu esa universitetlarni moliyalashtirish metodologiyasini xalqaro tajriba va milliy modellarni ishlab chiqishni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Moliyalashtirish tizimi Yevropa mamlakatlarida sezilarli darajada farqlanadi: Germaniya, Fransiya, Finlyandiya, Norvegiya, Avstriya va Polshada oliy ta'lim to'liq davlat tomonidan moliyalashtirilsa, Niderlandiya va Italiyada qisman moliyalashtiriladi; Norvegiyada ta'lim hamma uchun bepul bo'lib qoladi. Oliy ta'limga davlat xarajatlari darajasi turlicha: Norvegiyada - YAIMning 1,7%, Finlyandiyada - 1,6%, Germaniyada - 1,2%, AQShda - 0,9%, bu yerda xususiy moliyalashtirish muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda 2024 yil holatiga ko'ra oliy ta'limga davlat xarajatlari YaIMning 0,4-0,45 %ni tashkil etadi, bu esa ta'limga investitsiyalarni oshirish salohiyatidan dalolat beradi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, oliy ta'lim muassasalari moliyalashtirishni rivojlantirish va barqarorligini ta'minlashda zamonaviy moliyaviy vositalarni tatbiq etish, moliyaviy boshqaruvda innovatsion yondashuvlarni joriy etish hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Yetakchi universitetlar o'z moliyaviy modellarini an'anaviy davlat mablag'lariga qaramlikdan chiqarib, ko'p kanalli moliyalashtirish tizimiga o'tmoqda. Bu tizimda davlat byudjeti, xususiy sektor investitsiyalari, to'lov-kontrakt asosidagi daromadlar, xalqaro grantlar, xayriya fondlari va tadqiqot loyihalaridan olinadigan mablag'lar o'zaro uyg'unlashtirilgan holda faoliyat ko'rsatadi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish orqali universitetlar infratuzilmani yangilash, innovatsion laboratoriyalar va texnoparklar tashkil etish, ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish sohalarida xususiy investorlar bilan hamkorlikni kengaytirayotgani kuzatilmoqda. Ayniqsa, tarmoq universitetlari va korporativ hamkorlar bilan tuzilayotgan strategik ittifoqlar ta'lim sifati va mazmunini bozor talablariga muvofiqlashtirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, samaradorlikka asoslangan moliyalashtirish modellarining joriy etilishi orqali ta'lim va ilmiy natijalarga qarab resurslar taqsimlanmoqda. Bu esa universitetlar o'rtasida raqobat muhitini kuchaytirib, strategik samaradorlikni oshirishga olib kelmoqda. Universitetlar o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda xayriya fondlari, endowmentlar va kraudfanding platformalari orqali moliyaviy mustaqillikni mustahkamlashga intilmoqda. Bu kabi mablag' yig'ish mexanizmlari, ayniqsa, yetuk bitiruvchilar, mahalliy jamiyat va nodavlat tashkilotlar bilan aloqalarni kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining moliyalashtirishni rivojlantirish xalqaro tajriba va milliy xususiyatlarni o'zida mujassam etgan ilmiy asoslangan yondashuvlardan foydalanishni taqozo etadi. Joriy vazifalar qatoriga moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, natijaga yo'naltirilgan modellarni joriy etish, universitetlar faoliyati samaradorligini tahlil qilish va xususiy

sektor va xalqaro fondlar bilan hamkorlikni rasmiylashtirish kiradi. Davlatimiz tomonidan oliy ta'limga ustuvor ahamiyat qaratilayotganiga va byudjetdan ajratiladigan mablag'larning 2020-yildagi 2,3 trln. so'mdan 2024-yilda 5,5 trln. so'mgacha o'sishiga qaramay, ularning YaIMdagi ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda – 2020-yildagi 0,27 %dan 0,36-0,38 % gacha, bu esa 2024-yilda inson kapitaliga bo'lgan investitsiyalar ehtiyojini yanada oshirishdan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 10-oktyabrdagi PQ-3355-sonli «Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Prezident qarori, 2020-yil 19-martdagi PQ-4889-sonli «Oliy ta'limni rivojlantirish va innovatsion ta'lim tizimini shakllantirish to'g'risidagi» Prezident qarori, 2021-yil 22-yanvardagi PQ-4974-sonli «Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish to'g'risidagi» Prezident qarori, 2022-yil 11-mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 261-sonli «Oliy ta'lim muassasalari uchun oliy ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar» to'g'risidagi qarori, 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son «2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.** Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish uslubiyotini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy tadqiqotlar xalqaro tashkilotlar, jahondagi yetakchi universitet va markazlar tomonidan amalga oshirilmoqda, jumladan, UNESCO<sup>1</sup> (Higher Education in a Changing World), OECD<sup>2</sup> (Organisation for Economic Co-operation and Development), European Commission<sup>3</sup> - Education and Training, Asian Development Bank Institute<sup>4</sup>, University of Oxford<sup>5</sup>, Harvard University<sup>6</sup>, Maastricht University<sup>7</sup>, Rossiya Milliy tadqiqot universiteti «Oliy iqtisod maktabi»<sup>8</sup>, Rossiya prezidenti huzuridagi xalq xo'jaligi va davlat xizmati akademiyasi<sup>9</sup>, Moskva davlat universiteti<sup>10</sup>, Rossiya Fanlar akademiyasi Iqtisodiyot instituti<sup>11</sup> tomonidan olib borilgan.

---

<sup>1</sup> UNESCO (Higher Education in a Changing World), <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000203185>

<sup>2</sup> Organisation for Economic Co-operation and Development, <https://www.oecd.org/en.html>

<sup>3</sup> EC Education and Training, [https://commission.europa.eu/topics/education-and-training\\_en](https://commission.europa.eu/topics/education-and-training_en)

<sup>4</sup> ADB Institute, <https://www.adb.org/adbi/main>

<sup>5</sup> University of Oxford, <https://www.ox.ac.uk/>

<sup>6</sup> Harvard University, <https://www.harvard.edu/>

<sup>7</sup> Maastricht University, <https://www.maastrichtuniversity.nl/>

<sup>8</sup> Rossiya Milliy tadqiqot universiteti «Oliy iqtisod maktabi», <https://www.hse.ru/>

<sup>9</sup> RANXiGS, <https://lib.ranepa.ru/ru/>

<sup>10</sup> Moskva davlat universiteti, <https://msu.uz/>

<sup>11</sup> RAN iqtisodiyot instituti, <https://inecon.org/>

Oliy ta'lim muassasalari moliyalashtirish ulubiyotini takomillashtirishga bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan:

xalqaro darajada oliy ta'limda moliyalashtirish, hisobdorlik va sifat kafolati bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan (CHEA - Council for Higher Education Accreditation <sup>12</sup> (USA); Yevropa universitetlarining moliyaviy mustaqilligi, avtonomiyasi va ta'lim sifatini oshirish metodikasi ishlab chiqilgan (EUA - European University Association <sup>13</sup>); Oliy ta'limda moliyalashtirish va sifatni ta'minlash mezonlarini belgilab bergan. (INQAAHE - International Network for Quality Assurance Agencies in Higher Education <sup>14</sup>); Ta'lim sohasida moliyaviy barqarorlik, o'qituvchilar huquqlari himoyalash va investitsiyalarni jalb etish mexanizmi ishlab chiqilgan (Education International); Oliy ta'limda tenglik va moliyalashtirishga oid tadqiqotlar va grant dasturlarini yaratgan. (Lumina Foundation); Ta'lim sifatini baholash, moliyalashtirish modellari, universitetlarning moliyaviy ko'rsatkichlari tahlilini amalga oshirgan (Times Higher Education (THE) & QS Intelligence Unit).

Xalqaro amaliyot ko'rsatishicha, oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarishning nazariy hamda metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini kengaytirish, byudjet mablag'larini mustaqil taqsimlash va daromad manbalarini diversifikatsiya qilish; natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish, ta'lim va ilmiy faoliyat samaradorligiga qarab resurs taqsimotini amalga oshirish va KPI asosida moliyalashtirish mexanizmlari, xususi sektor bilan sheriklik, faol byudjetlashtirish va moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni oshirish, raqamlashtirish va moliyaviy axborot tizimlari joriy etish, xalqaro moliyaviy standartlarga moslashuv bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish uslubiyotini takomillashtirishning kontseptual asoslari, iqtisodiy mohiyati va uning ahamiyati bo'yicha bir qator xorijiy moliyachi olimlar, jumladan, Martin Trou, Yurgen Enders, Dj.K.Van Xorn, Meri Kanning, Dj.M.Vaxovich, Yu.Brigxem, V.V.Chexa<sup>15</sup>, V.M.Filippov, K.A.Belokrilov, L.Gapenski, I.A.Blank, G.A.Lukichev, I.Ya.Lukasevich, V.V.Kovalev<sup>16</sup> va boshqalarning ilmiy asarlarida

---

<sup>12</sup> CHEA - Council for Higher Education Accreditation (USA), <https://www.chea.org/>

<sup>13</sup> European University Association, <https://www.eua.eu/>

<sup>14</sup> International Network for Quality Assurance Agencies in Higher Education, <https://www.inqaahe.org/>

<sup>15</sup> Martin Trow. Twentieth-Century Higher Education: Elite to Mass to Universal. Johns Hopkins University Press. 2010. 640 b. Jürgen Enders. Higher Education in a Globalising World: International Trends and Mutual Observation. Springer, Higher Education Dynamics. 2002.362 b. Dj. K. Van Xorn.Osnovi upravleniya finansami: [Per. s angl.]. - Moskva: Finansi i statistika, 1997. - 799 b. Mary Canning Higher Education Financing in the New EU Member States. Washington, D.C.: The World Bank, 2007 219 b. Vaxovich Dj.M. Osnovi finansovogo menedjmenta. Izdatelstvo: Vilyams.2011. 1232 s. Yu.Brigxem.Finansoviy menedjment. Piter. 2016. 978-5-496-00117-5, 978-5-496-02423-5. <https://www.livelib.ru/author/112750/top-yudzhin-f-brighem>. Chexa V. V. Finansirovaniye vysshego obrazovaniya v Rossii. Uchebnoye posobiye. M: .Izd. Yustitsinform, 2018. 222 b.

<sup>16</sup> Filippov V.M Системы финансирования высшего образования в зарубежных странах. Учебное пособие. - М.: RUDN, 2008. – 194 с. K. A. Belokrilova.Obshestvenniy vibor i gosudarstvennyye rasxodi. Uchebnoye posobiye.- Yujniy Federalnyy Universitet. 2023. 184 str. Gapenski L. Finansovyy menedjment. Uchebnik. Prospekt. 2017. 1184b. Blank I. A. Osnovi finansovogo menedjmenta. Uchebnik.- Nika-Sentr.2019. 1100 s. Lukichev G.A. Sistemi

o'rgangan. Oliy ta'lim muassasalari moliyasi masalalariga oid mamlakatimiz iqtisodchi olimlari S.S.G'ulomov, S.M.Buzrukxonov, T.S.Malikov, N.X.Jumayev, M.Saidov B.E.Toshmurodova, N.E.Jiyanova, M.M.Tashxodjeyev, O.O.Olimjonov, S.E.Elmirzayev, A.Burxanov, O.N. Xamdamov, M.P.Eshov, Sh.A.Yakubov, A.Xojayev, N.R.Tursunovalarning<sup>17</sup> ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

A.A.Maxmudovning ilmiy ishlarida oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni shakllantirish va boshqarish mexanizmini takomillashtirish masalalariga nazariy yondashuv amalga oshirilgan, oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar bayon etilgan<sup>18</sup>.

O'zbekistonlik olimlar N.X.Jumayev va D.A.Raxmonovning ilmiy tadqiqotlarida oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishda ta'lim kreditining amal qilish, uning o'ziga xosliklari, afzalliklari va murakkabliklari ko'rib o'tilgan<sup>19</sup>.

M.M.Tashxodjeyev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim to'lovi summasining qat'iy belgilanishi oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muhitini shakllantirishiga olib kelishi masalalari ko'rib o'tilgan<sup>20</sup>.

Biroq oliy ta'lim moliyalashtirish masalalari ularning ilmiy tadqiqotlarida ko'rib o'tilmagan. Shularni e'tiborga olgan holda ushbu tadqiqot ishida alohida ilmiy yo'nalish sifatida kompleks tadqiq etilishi tanlangan mavzuning dolzarbligini anglatadi.

### **Dissertatsiya tadqiqotining oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari**

---

finansirovaniya visshego obrazovaniya v zarubejnix stranax: Uchebnoye posobiye. M. RUDN. 2019. 194 s., Lukasevich, I. Ya. Finansoviy menedjment: uchebnik i praktikum dlya vuzov / I. Ya. Lukasevich. - 4-e izd., pererab. i dop. - Moskva: Izdatelstvo Yurayt, 2025. - 680 s. V. V Kovaleva. «Finansi organizatsiy. Uchebnik. Prospekt.2018. 352 str.

<sup>17</sup> G'ulomov S va boshqalar. Intellektual iqtisodiyotda samaradorlik omillari//O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. Toshkent, 2015. - №6. – B.38-41. Buzrukxonov «Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida oliy ta'limni moliyalashtirishni takomillashtirish» mavzusidagi iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi avtoreferati. 2022y, T.S.Malikov. Moliya.Darslik. Noshir. 2011, 712b., Jumayev N.X. O'zbekistonda ta'lim tizimini moliyalashtirishda ta'lim kreditining o'ziga xos xususiyatlari. / «Xalqaro moliya va hisob» ilmiy elektron jurnali. № 2, aprel, 2018. 1-10b. Toshmurodova B.E. Jiyanova N.E. «Innovatsiya faoliyatni moliyaviyrag'batlantirish». O'quv qo'llanma. - T.: IQTISOD-MOLIYA, 2006. - 110b, Tashxodjeyev M. M. Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishda davlatning roli. «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021 yil.43b., O.O.Olimjonov va boshqalar. Moliya asoslari. Darslik.T.-Sharq.2018.804b., S.E. Elmirezayev «Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining ilg'or xorij tajribalari va mamlakatimizda qo'llash istiqbollari»/ Xalqaro moliya va hisob» ilmiy elektron jurnali. №6.2019..10b. A. Burkhanov, ON Hamdamov - T.:»Innovative development publishing house», 2020, 17b. M.P. Eshov Oliy ta'lim muassasalarida tijoratlashtirish jarayonlari va texnologiyalar transferini shakllantirish./ Economics and Innovative Technologies. 2024. 143-146. Yakubov Sh. A. Oliy ta'lim muassasalari moliyaviy faoliyatini samarali boshqarish yo'llari./ Economics and Innovative Technologies, №1, 104–110. [https://doi.org/10.55439/EIT/vol12\\_iss1/564](https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss1/564), Xojayev A. Oliy talim muassasalarining moliyaviy barxarorligini ta'minlashda byudjetdan tashqari mablag'larning shakllanishi, o'rni va ularning tahliliy jihatlari./Ijtimoiy-gumanitarniy fanlarning dolzarb muammolari. <https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N07>, N.R. Tursunova.Xalqaro kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilishning zamonaviy shakli./ Xalqaro moliya va hisob. № 4 (8) 2017.26b.

<sup>18</sup> A.A.Maxmudov. Mahalliy oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarishga nazariy yondashuv // Academic research in educational sciences, 2021

<sup>19</sup> Jumaev N.X., Rahmonov D.A. Oliy ta'lim olishni xususiy manbalardan moliyalashtirish: nazariya va amaliyot [Private funding for higher education: theory and practice]. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar – Economy and innovative technologies, 2018, September-October, no. 5. 9.

<sup>20</sup> Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishda davlatning roli // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021 yil

**rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liq holda bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** oliy ta'lim moliyalashtirish uslubiyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va zamonaviy konsepsiyalarini aniqlash;

Zamonaviy sharoitlarda oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslari va prinsiplarini o'rganish;

Oliy ta'lim muassasalari moliyaviy resurslari shakllanish tizimini boshqarish amaliyotining tahlilini amalga oshirish;

Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning zamonaviy funksional elementlari va ulardan foydalanish samaradorligini aniqlash;

Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf qilishning istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish;

Oliy ta'lim tizimini moliyaviy salohiyatini zamonaviy moliyaviy instrumentlar yordamida yanada yuksaltirish yo'llarini o'rganish;

«Universitet 4.0» formatidagi universitet faoliyatini diversifikatsiyalash sharoitida yangi moliyaviy modelini shakllantirish istiqbollarini aniqlash;

Akademik faoliyatni raqamlashtirish-universitetlar moliyaviy salohiyatini yuksaltirish yo'llarini o'rganish;

Universitetlar xalqaro raqobatbardoshligini oshirish orqali xorijiy investitsiyalar va grantlarni keng jalb qilishning istiqbolli yo'nalishlariga aniqlik kiritish;

Oliy ta'lim muassasalari moliyalashtirish metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni tizimlashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy munosabatlari tizimi tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida tahlil va sintez qiyosiy va iqtisodiy tahlil, statistik tahlil, taqqoslash hamda iqtisodiy-matematik modellash, iqtisodiy tahlil, koeffitsiyent orqali baholash, istiqbolli prognozlash usullaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish uslubiyotini takomillashtirish doirasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida ta'lim infratuzilmasini loyihalash, moliyalashtirish, qurish, foydalanish va belgilangan muddatdan so'ng davlat balansiga o'tkazishni nazarda tutuvchi barqaror moliyalashtirish modeli taklif etilgan;

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, samaradorlikni rag'batlantirish va ilmiy faollikni kuchaytirishda byudjet mablag'lari va to'lov-kontrakt tushumlaridan tashqari, reyting va natijaviylik ko'rsatkichlariga

asoslangan, milliy sharoitga moslashtirilgan samarali moliyalashtirish modeli taklif etilgan;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, xarajatlarni optimallashtirish va manbalarni diversifikatsiya qilishni rag'batlantirishda moliyaviy mustaqillik darajasini va tizim barqarorligini kompleks baholay oladigan «oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi indeksi» ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy faoliyatni real vaqt rejimida xolisona kuzatish, tahlil qilish va asosli qarorlar qabul qilishni ta'minlashda kalit samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida shaffof moliyaviy boshqaruvni shakllantirish va strategik rejalashtirish imkonini beradigan zamonaviy raqamli KPI-monitoring tizimi konsepsiyasi taklif etilgan;

oliy ta'lim muassasalariga kiritilayotgan moliyaviy resurslarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholashda kapital rentabelligi koeffitsiyentiga ta'sir etuvchi omillar asosida moliyaviy boshqaruvni strategik rejalashtirish va natijaviylikni oshirishga qaratilgan kompleks regression model asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Davlat-xususiy sheriklik asosida ta'lim infratuzilmasini moliyalashtirishning ishlab chiqilgan funksional modeli davlat va xususiy sektor o'rtasidagi investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirishni ta'minlab, davlat byudjeti yukini kamaytirish va ta'lim muhiti sifatini yaxshilashga ko'maklashadi;

OTMLarni nafaqat miqdoriy, balki sifat ko'rsatkichlarini ham hisobga olgan holda moliyalashtirishning natijaga yo'naltirilgan mexanizmini joriy etish ko'zda tutilmoqda, bu esa raqobatni rag'batlantirish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi;

Universitetning moliyaviy barqarorlik indeksi universitetlarning moliyaviy sog'lig'ini daromadlar, xarajatlar va qayta investitsiya salohiyati nuqtai nazaridan obyektiv baholash vositasi bo'lib, manfaatdor tomonlar tomonidan strategik qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

Strukturaviy mezonlarning ishlab chiqilgan tizimi universitetlarga grantlar, kontrakt ishlari va ichki investitsiyalar hajmini kengaytirish orqali moliyaviy mustaqillik darajasini xolisona baholash va maqsadli ravishda oshirish imkonini beradi;

KPI-monitoringi konsepsiyasidan kelib chiqqan holda, byudjetni optimallashtirishga yordam beradigan daromadlar, xarajatlar va bo'limlarning samaradorligini vizualizatsiya qilish bilan universitet moliyasini operativ tahlil qilish va rejalashtirish uchun axborot tizimi ishlab chiqiladi;

ROE modelini amalga oshirish ta'lim sohalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini kiritilgan investitsiyalar bilan bog'liq holda baholash va shu asosda ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlarini asoslash imkonini beradi;

Iqtisodiy missiya va moliyaviy integratsiya modeli konsepsiyasini qo'llash OTMLarga strategik funksiyalarni bajarish, maqsadli moliyalashtirishni jalb qilishni ta'minlash hamda ularning mintaqaviy va milliy taraqqiyotga qo'shgan hissasini kuchaytirish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya tadqiqotida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi ishda qo‘llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, chiqarilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan metodologik taklif va amaliy tavsiyalar OTM moliya tizimini samarali boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta’lim muassasalari moliyalashtirish uslubiyotini takomillashtirishga doir modellar va istiqboldagi rejalarni ishlab chiqishda hamda bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida o‘qitilayotgan «Moliyaviy menejment» fanining o‘quv dasturi va qo‘llanmalarini davr talabiga mos ravishda takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oliy ta’lim muassasalari moliyalashtirish uslubiyotini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish uslubiyotini takomillashtirish doirasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida ta’lim infratuzilmasini loyihalash, moliyalashtirish, qurish, foydalanish va belgilangan muddatdan so‘ng davlat balansiga o‘tkazishni nazarda tutuvchi barqaror moliyalashtirish modeli bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligining 2025-yil 27-maydagi 4/17-5/08-07-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning turar-joy bilan ta’minlash muammosi bartaraf etish maqsadida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti hududida 550 o‘ringa mo‘ljallangan talabalar turar joyi binosini qurish uchun davlat-xususiy sheriklik loyihasi amalga oshirilgan;

oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish, samaradorlikni rag‘batlantirish va ilmiy faollikni kuchaytirishda byudjet mablag‘lari va to‘lov-kontrakt tushumlaridan tashqari, reyting va natijaviylik ko‘rsatkichlariga asoslangan, milliy sharoitga moslashtirilgan samarali moliyalashtirish modeli bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligining 2025-yil 27-maydagi 4/17-5/08-07-son ma’lumotnomasi). Natijada, Samarqand davlat universitetida innovatsion loyihalar, tadqiqot va startaplar kabi tadqiqot faoliyatiga 2020-yilda 213 milliard so‘m ajratilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 203 milliard so‘mni tashkil etgan;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, xarajatlarni optimallashtirish va manbalarni diversifikatsiya qilishni rag‘batlantirishda moliyaviy mustaqillik darajasini va tizim barqarorligini kompleks baholay oladigan «oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi indeksi» ishlab chiqish bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va

innovatsiyalar Vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligining 2025-yil 27-maydagi 4/17-5/08-07-son ma'lumotnomasi). Natijada, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Urganch davlat universiteti, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti hamda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutlari daromadlari 2019-yilga nisbatan 2023-yilda 200-250 foiz atrofida o'sish kuzatilgan;

oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy faoliyatni real vaqt rejimida xolisona kuzatish, tahlil qilish va asosli qarorlar qabul qilishni ta'minlashda kalit samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida shaffof moliyaviy boshqaruvni shakllantirish va strategik rejalashtirish imkonini beradigan zamonaviy raqamli KPI-monitoring tizimi konsepsiyasiga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligining 2025-yil 27-maydagi 4/17-5/08-07-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhiti shakllangan, samarali faoliyat ko'rsatuvchi OTMLar ko'proq moliyaviy resurslarga ega bo'lib, o'z infratuzilmasini, ilmiy salohiyatini va ta'lim jarayonini yanada rivojlantirish imkoniga ega bo'lgan, davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar maqsadli va oqilona taqsimlanib, ta'lim sifatining oshishi orqali mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash imkoniyatini kengaytirgan;

oliy ta'lim muassasalariga kiritilayotgan moliyaviy resurslarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholashda kapital rentabelligi koeffitsiyentiga ta'sir etuvchi omillar asosida moliyaviy boshqaruvni strategik rejalashtirish va natijaviylikni oshirishga qaratilgan kompleks regression model bo'yicha takrifi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligining 2025-yil 27-maydagi 4/17-5/08-07-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim sektoridagi kapital hajmi o'zgarishlarida uzviy bog'liqlikni aks ettirilib, ta'lim sohasidagi strategik investitsiyalar hamda raqamli infratuzilmalarning taraqqiy etishi bilan moliyalashtirish amaliyotlarining qo'llab-quvvatlovchi mustahkam tendensiyalari tufayli oliy ta'lim muassasalarda sof daromadning o'sishiga xizmat qilagan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 4 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 31 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 24 ta ilmiy maqola, shundan 7 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 6 ta ma'ruza tezislari nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Tadqiqot hajmi 224 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, xorijiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ishning ilmiy va amaliy ahamiyati, olingan natijalar va ilmiy yangiliklar yoritib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining «**Oliy ta'lim muassasalarini moliyasining ilmiy-nazariy va metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida oliy ta'lim muassasalarini moliyasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va zamonaviy konsepsiyalari, zamonaviy sharoitlarda oliy ta'lim muassasalarini moliyasini tashkil qilish va rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari va prinsiplari, hamda zamonaviy oliy ta'lim muassasalarini moliyasini tashkil qilishning ilg'or xorijiy tajribalari o'rganilgan.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida moliya faqat xarajatlar manbai emas, balki ta'lim sifatini, fan va innovatsiyani, kadrlar salohiyati va xalqaro raqobatbardoshlikni ta'minlovchi strategik resurs sifatida qaraladi. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy barqarorlik bo'lmasa, ta'lim jarayonining uzluksizligi, infratuzilmaviy rivojlanish, ilmiy tadqiqotlarning amalga oshishi va kadrlar salohiyatining o'sishi ta'minlanmaydi. Globalizatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalarining jahon ta'lim fazosiga chiqishi, xalqaro ilmiy va ta'lim hamkorligini kengaytirishi muhim strategik vazifalardan biridir. Bu jarayon integratsiya deb nomlanadi va unda moliya hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xalqaro sheriklar bilan birgalikda bakalavriat, magistratura va PhD dasturlarini amalga oshirish katta moliyaviy resurslarni talab qiladi - o'quv dasturlarini muvofiqlashtirish, o'qituvchilarni jalb qilish, texnik jihozlash va akkreditatsiya jarayonlarini qoplash uchun zarur. QS, Times Higher Education va boshqa xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallash uchun ta'lim muassasalarini ilmiy nashrlar, xalqaro tadqiqotlar va auditdan o'tish jarayonlariga moliya sarflashi kerak. Yevropa Ittifoqining Erasmus+, Horizon Europe va boshqa dasturlari bilan hamkorlikda loyihalarda ishtirok etish uchun muassasa moddiy, texnik va inson resurslarini safarbar qilishi lozim. Chet elliklar uchun ta'lim berish infratuzilmasi (qo'shimcha darslar, til kurslari, turar joy, logistika) ham moliyaviy sarmoyalar talab qiladi. Bu orqali ta'lim muassasasi daromad manbalarini kengaytirishning nazariy-metodologik asoslari atroflicha tadqiq qilingan va tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Zamonaviy talablarga javob beradigan, raqobatbardosh va samarali ta'lim tizimini shakllantirish, uni barqaror rivojlantirish uchun moliyaviy resurslarning yetarli bo'lishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ta'limni strategik sohalardan biri sifatida qo'llab-quvvatlash - mamlakatning intellektual salohiyati va iqtisodiy o'sishiga olib keladi. Infratuzilmaviy baza ta'lim tizimining moddiy poydevoridir. Unga yo'naltirilgan moliyalashtirish sifati, hajmi va barqarorligi ta'lim jarayonini jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi. Shuning uchun infratuzilmaga investitsiya – bu kelajak avlodga sarmoyadir.

Moliyasiz infratuzilmani yangilash yoki rivojlantirish imkonsiz bo‘lib, ta’lim sifatida ham sezilarli pasayish kuzatiladi. Ta’lim tizimida moliyaning roli faqat xarajatlarni qoplash bilan chegaralanmaydi. U ta’limning strategik yo‘nalishlarini belgilaydi, uning sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni ta’minlash, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va ilmiy faoliyatni rag‘batlantirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Natijaga asoslangan byudjetlashtirish OTM byudjeti ta’lim samaradorligi, natija va sifat ko‘rsatkichlariga qarab shakllantiriladi, qiymatga asoslangan boshqaruvda ijtimoiy va iqtisodiy qiymat yaratishga qaratilgan boshqaruv modeli qo‘llaniladi. Agentlik nazariyasidi davlat va xususiy sherik o‘rtasida samarali shartnoma va manfaatlar muvozanati muhim hisoblanadi. Tranzaksiya harajatlari nazariyasida loyiha tanlovi, shartnoma va monitoring xarajatlarini kamaytirish asosida samarali DXSH tizimi quriladi. Moliyalashtirish sxemasida subsidiyalar, xususiy sarmoya, ijara daromadlari va investitsiya qaytarimi orqali infratuzilmani barqaror moliyalashtirish amalga oshiriladi.



**1-rasm. Oliy ta’lim infratuzilmasini moliyalashtirishdagi asosiy yondashuvlar<sup>21</sup>**

Rasmdan ko‘rib turganimizdek, bu infografika ta’lim infratuzilmasini moliyalashtirish bo‘yicha nazariy asoslar va amaliy mexanizmlarni uchta blokka bo‘lib, tushunarli shaklda tasvirlagan. U akademik tadqiqotlar, ta’lim siyosati va amaliy loyihalarda qo‘llash uchun qulay konseptual ramka hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi va samaradorligi ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Davlat byudjetidan moliyalashtirish, oliy ta’lim sohasidagi islohotlar va xususiy sektorning ishtiroki bugungi kunning asosiy tendensiyalaridandir. Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy asoslari – bu ta’lim muassasalarining moliyaviy jihatdan barqaror va samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar, manbalar, hisobot tizimlari va boshqa moliyaviy jarayonlarning mukammal tashkil etilishi. Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy

<sup>21</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

asoslariga tushunish uchun ularning asosiy moliyaviy manbalari va ushbu manbalari bilan bog‘liq jarayonlar va mexanizmlar bilan tanishish muhim.

Moliyaviy mablag‘lardan foydalanishda har bir sarflangan so‘m o‘z natijasini berishini ta‘minlash, oqilona va tejamkor harajat qilish talab qilinadi. Bu prinsip oliy ta‘lim muassasasi moliyaviy resurslardan maqsadli, oqilona, xo‘jalik yurituvchi subyektga xos tejamkorlik bilan foydalanishini nazarda tutadi. Har bir sarflangan mablag‘ natija berishi, qiymat yaratishi, oliy ta‘lim muassasaning asosiy vazifalariga xizmat qilishi kerak.

Yevropada raqobatbardosh universitetlar soni oshib bormoqda. Ta‘lim to‘lovi kam, talabalarga turli ijtimoiy yordam turlari bor, ta‘lim sifatida ham o‘shish kuzatilmoqda. DUO orqali talabalar stipendiya, ta‘lim krediti, ijara yordami va transport chiptasini oladi. Quyida Kanada va Yaponiya davlatlaridagi oliy ta‘limni moliyalashtirish, talabalarga yordam va kontrakt to‘lovlari bo‘yicha ma‘lumotlar keltirib o‘tamiz.

### 1-jadval

#### Kanada va Yaponiya davlatlaridagi oliy ta‘limni moliyalashtirish buyicha ma‘lumotlar<sup>22</sup>

№	Mamlakat	Davlat moliyalashtirishi	Kontrakt to‘lovlari (o‘rtacha)	Talabalarga yordamlar	Izohlar
1	Kanada	Qisman	50000–70000	Stipendiyalar, talabalar krediti (Canada Student Loans), ijara yordami	Ta‘lim provinsiyalarga bog‘liq; xorijiyilar uchun to‘lov yuqori
2	Yaponiya	Qisman	50,000 – 90000	MEXT granti, universitet stipendiyalari, kontrakt chegirmalari	Davlat va xususiy universitetlar o‘rtasida farq katta


Jadvaldan ko‘rinib turganidek, Kanadada oliy ta‘lim olish uchun davlat tomonidan berilgan kreditlar (Canada Student Loans) mavjud bo‘lib, talabalarining ta‘lim va yashash xarajatlarini qoplash maqsadida taqdim etiladi. Ushbu kreditlar kanadalik talabalarga, shuningdek, xorijiy talabalarga (ma‘lum holatlarda) taqdim etilishi mumkin. Talabalar ta‘limni tugatganidan keyin, odatda, 6 oydan keyin qaytarishni boshlashlari kerak. To‘liq kreditni qaytarish muddati 10-15 yil bo‘lishi mumkin. Kredit uchun foiz stavkasi mamlakatdagi iqtisodiy holat va inflyatsiyaga bog‘liq. Kanada Canada Student Loans dasturi talabalarga stipendiyalar va subsidiyalar bilan birga taqdim etiladi. Dasturning maqsadi talabalarining moliyaviy engillik olishlarini ta‘minlash, yordam berish va ta‘limga bo‘lgan imkoniyatlarni kengaytirish. Kreditlar olinganidan keyin, agar talabalar ma‘lum bir vaqt davomida ishlasalar, kaytarish shartiga ega bo‘lishlari mumkin. Ba‘zi hollarda talabalarga kaytarish muddati muddatni uzaytirish yoki subsidiyalar berish imkoniyati ham mavjud.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2015-yilda O‘zbekistonda 69 ta oliy ta‘lim

<sup>22</sup> Muallif tomonidan amalga oshirilgan.

muassasasi bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 222 taga yetdi, bu ko‘p jihatdan oliy ta‘lim tizimidagi xususiy sektor faol o‘sishi bilan bog‘liq. Shunday qilib, 2018-yilda bitta nodavlat oliy o‘quv yurti bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda ularning soni 90 taga yetdi<sup>23</sup>. Bu ko‘rsatkichlar institutsional diversifikatsiya jarayoni va xususiy investorlarning mamlakat ta‘lim infratuzilmasini rivojlantirishdagi ishtiroki ortib borayotganini aks ettiradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda xususiy sektorning ta‘limga bo‘lgan sarmoyasi va mablag‘lari oshgan. Xususiy universitetlar va oliy ta‘lim muassasalari talabalardan kontrakt to‘lovlari orqali pul topishadi. Xususiy sektor oliy ta‘lim muassasalari talabalardan maxsus kontrakt to‘lovlarini oladi. Bu to‘lovlar talabalarning ta‘lim olish huquqiga ega bo‘lishi uchun zarurdir. Kontrakt to‘lovi shakllari universitetning bilim berish sifatidan va yangi ilmlar bilan ta‘minlashdan kelib chiqadi. O‘zbekistonda xususiy universitetlar faoliyat ko‘rsatadi. Ularning moliyalashtirilishi asosan talabalardan olinadigan puldan kelib chiqadi. O‘zbekistonning oliy ta‘lim muassasalari xalqaro grantlar va stipendiyalarga ham murojaat qilishi mumkin. Masalan, Erasmus+ kabi xalqaro dasturlar oliy ta‘lim muassasalariga xorijiy talabalarni jalb qilish va tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish uchun yordam beradi. O‘zbekistonda xalqaro hamkorlik moliyalashtirishning muhim usulidir. Ta‘lim muassasalari faoliyatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri - ularning yillik daromadlaridir. Quyida 5 ta yirik davlat OTM - O‘zbekiston milliy universiteti (O‘zMU), Farg‘ona davlat universiteti (FarDU), Qoraqalpoq davlat universiteti (QQDU), Termiz davlat universiteti (TerDU) va O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O‘zDJTU)ning 2019–2023-yillar kesimidagi daromadlari keltirilgan.



## 2-rasm. Oliy ta‘lim muassasalarining 2019–2023-yillardagi daromadlari<sup>24</sup> (mlrd. so‘m)

Rasmda ko‘rib turganimizdek, o‘shish sur‘ati mavjud bo‘lib, u mamlakatda kontrakt asosida talabalar sonining o‘sishi, inflyatsiya va grantlar miqdori ortishi

<sup>23</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>

<sup>24</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bilan bog‘liq holda hisoblandi. 2023-yildagi ma‘lumotlarga ko‘ra, eng yuqori daromad O‘zbekiston milliy universitetiga (O‘zMU) tegishli bo‘lib, uning umumiy daromadi 245 mlrd. so‘mga yetgan. Bu ko‘rsatkich 2019-yilga nisbatan qariyb 1,9 barobar oshganini ko‘rsatadi. Farg‘ona va Qoraqalpoq davlat universitetlari ham so‘nggi yillarda sezilarli daromad o‘shishiga erishgan. Bu holat kontrakt asosida tahsil oluvchi talabalar sonining ortishi, yangi ta‘lim dasturlarining joriy etilishi hamda moliyaviy menejmentni yaxshilash bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. O‘zMU - eng katta va markaziy universitet sifatida eng yuqori daromadlarga ega. O‘zDJTU (O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti) - xorijiy tillar bo‘yicha ixtisoslashganligi sababli talab yuqoriligi kuzatiladi.

Dissertatsiya ishining «**Oliy ta‘lim muassasalari moliyasi tizimi samaradorligining tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobida oliy ta‘lim muassasalari moliyaviy resurslari shakllanish tizimini boshqarish amaliyotining tahlili, oliy ta‘lim muassasalari moliyaviy resurslari hisobiga xarajatlarni samarali moliyalashtirish amaliyotining tahlili, hamda oliy ta‘lim muassasalarini moliyalashtirishni boshqarishning zamonaviy funksional elementlari va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili olib borilgan va tegishli xulosa shakllantirilgan.

Oliy ta‘lim muassasalarining moliyaviy resurslarini shakllantirish va boshqarish tizimi - bu ta‘lim muassasalarining barqaror faoliyatini ta‘minlash, strategik maqsadlarga erishish va resurslarni samarali taqsimlash uchun juda muhim mexanizm hisoblanadi. Ushbu tizim davlat siyosati, ichki moliya siyosatlari, tashqi manbalar bilan hamkorlik va hisobdorlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Quyidagi jadvalda OTMlarda moliyaviy resurslarni shakllantirish manbalarini ko‘rib o‘tamiz

## 2-jadval

### OTMlarda moliyaviy resurslarni shakllantirish manbalari<sup>25</sup>

№	Manba turi	Tasnif
1	Davlat byudjeti	Davlat buyurtmasi, stipendiyalar, infratuzilma loyihalari uchun ajratiladi
2	To‘lov-kontrakt tushumlari	Talabalardan olinadigan shartnoma pullari
3	Grantlar va loyihalar	Ilmiy, ta‘limiy va innovatsion loyihalar uchun xorijiy va mahalliy grantlar
4	Xomiylik mablag‘lari	Yuridik va jismoniy shaxslar, jamg‘armalar ko‘magi
5	Qo‘shimcha xizmatlardan tushumlar	Kurslar, ijara, kitobxonalar, maslahatlar
6	Tadbirkorlik faoliyati	Universitet qoshidagi biznes subyektlar faoliyatidan tushumlar

Jadvaldan ko‘rib turganimizdek, davlat tomonidan berilgan mablag‘lar ta‘lim muassasalari faoliyatini kafolatli moliyalashtirish imkonini beradi. Ular asosan davlat buyurtmasi (byudjet qabul), stipendiyalar, infratuzilma va ilmiy loyihalarga yo‘naltiriladi.

Moliyaviy mustaqillik - juda zarur va islohotbop qadam, ammo uni samarali amalga oshirish uchun tashkiliy, huquqiy va kadrlar tayyorgarligi talab etiladi.

<sup>25</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Davlat, OTM rahbarlari va jamiyat o'rtasida ishonchli va shaffof munosabatlar o'rnatilishi lozim. Har bir OTM moliyaviy imkoniyatini bilim, innovatsiya va sifat bilan bog'lay olishi kerak. Quyida OTMlar moliyaviy mustaqilligi bilan bog'liq muammolari aks ettirilgan jadvalni keltirib o'tamiz.

### 3-jadval


#### OTMlar moliyaviy mustaqilligi bilan bog'liq muammolari<sup>26</sup>

№	Muammo	Tavsif	Taklif va yechimlar
1	Moliyaviy boshqaruv salohiyati past	Ko'plab OTMlarda moliyaviy rejalashtirish va menejment salohiyati yetarli emas	Moliya va boshqaruv mutaxassislarini tayyorlash, malaka oshirish kurslari joriy etish
2	Aniq mexanizm va yo'riqnomalar yetishmasligi	Mustaqil boshqaruv uchun zarur normativ baza to'liq emas	Davlat tomonidan yagona yo'riqnomalar, KPI tizimi, audit standartlari ishlab chiqilishi
3	Kontrakt narxlarining keskin o'sishi	Ayrim OTMlar kontrakt narxini asossiz oshirmoqda	Kontrakt narxlarini shaffof hisoblash modeli, ijtimoiy tenglikni ta'minlovchi mexanizm
4	Homiylik va investitsiyani jalb qilishda qiyinchilik	Xususi sektor bilan hamkorlik mexanizmi yo'q yoki samarasiz	Universitetlarda «Innovatsiya va investitsiya bo'limlari»ni tashkil etish, huquqiy kafolatlar berish
5	Ichki nazorat va moliyaviy shaffoflik muammosi	Harajatlar bo'yicha ochiq hisobotlar taqdim etilmaydi	Ichki audit bo'limlari faoliyatini kuchaytirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini joriy qilish
6	Ilmiy-tadqiqot faoliyati moliyalashtirilmagan	Moliyaviy mustaqillik ilmiy ishlarga yetarli mablag' ajratishni kafolatlamaydi	Ilmiy grantlar uchun alohida fondlar tuzish, davlat-xususi sheriklik asosida tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash
7	Ta'lim sifatiga bosim	Daromad olish maqsadida talabalar soni ko'paytirilishi mumkin	Sifatni baholash tizimini kuchaytirish, audit va akkreditatsiya talabalarini qat'iy lashtirish

Jadvalda qayd etilgan muammolarni bartaraf etish uchun bizning fikrimizcha, moliyaviy boshqaruvni tizimli va kasbiy asosda yo'lga qo'yish, tashkiliy va huquqiy asoslarni mustahkamlash, ta'lim sifati va ijtimoiy adolatni ta'minlash juda muhim hisoblanadi.


Rasmdan ko'rish mumkinki, 5 yilda umumiy xarajatlar 45.8 mlrd so'mga (+53.9%) oshgan. Bu o'sish asosan maosh, infratuzilma va talabalarga xizmatlar hisobiga amalga oshgan. Maosh va ish haqi umumiy xarajatlarning yarmini tashkil etadi. Bu ta'lim muassasalarida ish haqi xarajatlarining asosiy bo'lishini tasdiqlaydi. Ushbu diagrammada Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2019–2023-yillar oralig'idagi xarajatlari turlari bo'yicha tahlil qilingan. Maosh va ish haqi har yili barqaror o'sgan va doimiy ravishda eng yirik xarajat turi bo'lib qolmoqda. Asosiy vositalar va talabalarga xizmatlar bo'yicha xarajatlar ham izchil oshgan. Jami xarajatlar 5 yilda 85 mlrd so'mdan 130 mlrd so'mgacha o'sgan.

<sup>26</sup> Muallif tomonidan amalga oshirilgan.



### 3-rasm. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti harajatlari turlari bo‘yicha ma’lumotlari<sup>27</sup>, mlrd. so‘m

Quyidagi rasmda har bir OTM bo‘yicha xarajatlar 1-, 2- va 4-guruhlar kesimida ko‘rsatilgan. Diagramma quyidagilarni ko‘rsatadi ya’ni 1-guruh (maosh, shtat fondi va h.k.) - asosiy ulushni tashkil etadi. 2-guruh (tovar va xizmatlar) - nisbatan kam xarajat talab qiladi. 4-guruh (kapital xarajatlar: ta’mir, uskunalar va b.) - ayrim universitetlarda katta ulushga ega (masalan, Qoraqalpoq va Urganch davlat universitetlari).



### 4-rasm. OTMlar xarajatlarning guruhlanishi<sup>28</sup>

Rasmda ko‘rinib turganidek, Farg‘ona va Namangan davlat universitetlarida maosh va aloqador xarajatlar katta ulushni tashkil etadi. Qoraqalpoq davlat universiteti (QQDU) eng ko‘p xarajat qilgan OTM

<sup>27</sup> Muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.

<sup>28</sup> Muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.

hisoblanadi. Unda kapital xarajatlar juda katta ulushni tashkil etgan, bu qurilish, uskunalar olish yoki ta'mir ishlari bilan bog'liq bo'lgan. O'zbekiston OTMLari xarajatlarining asosiy qismi ish haqi va shtat fondiga to'g'ri keladi. Kapital xarajatlar ham katta ulushni tashkil etadi. Byudjetlash OTMLar moliyalashtirishini boshqarishning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Quyida OTMLarda natijaga asoslangan moliyalashtirish modelini ko'rib o'tamiz.

#### 4-jadval

### OTMLarda natijaga asoslangan moliyalashtirish modelini joriy etish samaradorligi<sup>29</sup>

№	OTMdagi muammolar	PBF orqali hal qilinishi ko'zda tutilgan muammolar
1	Davlat byudjetiga kuchli qaramlik va qat'iy smeta asosidagi moliyalashtirish OTMLarning moliyaviy mustaqilligi hamda moslashuvchanligini cheklamoqda.	Moliyalashtirishni aniq natija ko'rsatkichlariga bog'lash - masalan, bitiruv darajasi, bitiruvchilar bandligi, ilmiy maqolalar soni kabi indikatorlar asosida OTMLarga mablag' ajratish orqali ularni sifatli natijalarga erishishga rag'batlantirish.
2	Mablag' taqsimoti ko'pincha natija va sifat ko'rsatkichlariga emas, kirim va xarajat smetalariga asoslangan - bu esa oliy ta'limda sifat va samaradorlikning yetarlicha rag'batlantirilmayotganini anglatadi.	Hisobdorlikni kuchaytirish - PBF vositasida har bir OTMga ajratilgan mablag' uning erishgan natijalariga muvofiq belgilanishi tufayli OTMLar davlat va jamoatchilik oldida hisobotdor bo'ladi.
3	An'anaviy qabul kvotalariga asoslangan moliyalashtirish modeli jamiyatning oliy ta'limdan kutgan natijalarini qondirolmayotgani xalqaro tajribada ham ta'kidlangan	Maxsus moliyaviy shartnomalar yoki indikatorlar asosida davlat OTMLardan ma'lum natijalarni talab qiladi (masalan, reytinglarda ko'tarilish, akkreditatsiya olish).
4	Universitetlar byudjetiga ajratiladigan mablag'larning katta qismi ma'muriy xarajatlar va infratuzilmaga sarflanadi - o'quv jarayoni va ilmiy tadqiqotlarga nisbatan juda yuqori ulush (masalan, ta'lim jarayoniga atigi 18%, tadqiqotga 10% ajratilgan) qayd etilgan (innoist.uz), bu holat ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.	Samaradorlikni oshirish - PBF orqali moliyaviy resurslar samarali taqsimlanishini ta'minlash ko'zlanadi: an'anaviy qat'iy smeta o'rniga OTMLarga moslashuvchan jamlama byudjet ajratilib, ularga mablag'ni ichki ehtiyoj va strategik rejalarga muvofiq sarflash imkoni beriladi
5	Mavjud moliyaviy rejalashtirish tizimi universitetlarning joriy rivojlanish vazifalarini to'liq hisobga olmaydi - zamonaviy sharoit va strategik ehtiyojlarga mos ilg'or usullarni joriy etish zarurati mavjud	Innovatsiya va moliyaviy mustaqillikni rag'batlantirish - PBF OTMLarga o'z daromadlarini oshirish (masalan, pullik xizmatlar, tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish) hamda innovatsion loyihalarga mablag' yo'naltirish erkinligini beradi

Xulosa qilib aytganda, natijaga asoslangan moliyalashtirish modelini joriy etish O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi moliyaviy boshqaruvni takomillashtirib, sifatni oshirish, hisobdorlikni kuchaytirish va resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirish kabi ijobiy o'zgarishlarga zamin yaratadi. Xalqaro tajribada ham bu yondashuv muvaffaqiyatli samara berayotganini ko'rish mumkin - masalan, Finlyandiya universitetlariga ajratiladigan davlat mablag'larining 40% atrofida qismi bevosita ularning natijadorlik ko'rsatkichlariga bog'langan bo'lsa, Qozog'iston ham so'nggi yillarda shu kabi natijaga yo'naltirilgan gibril moliyalashtirishga bosqichma-bosqich o'tmoqda.

<sup>29</sup> Muallif ishlanmasi.

Dissertatsiya ishining «**Oliy ta'lim muassasalari moliyasini boshqarish funksional elementlari va zamonaviy moliyaviy instrumentlarini qo'llash metodologiyasini takomillashtirish**» deb nomlangan uchinchi bobida oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf qilishning istiqbolli yo'nalishlari, moliyaviy monitoring oliy ta'lim muassasalarini moliyasi tizimini samarali boshqarish usuli sifatida namoyon bo'lishi, oliy ta'lim tizimini moliyaviy salohiyatini zamonaviy moliyaviy instrumentlar yordamida yanada yuksaltirish yo'llari, hamda oliy ta'lim muassasalarida byudjet menejmenti samaradorligini baholashning zamonaviy monitoring tizimini takomillashtirish orqali asosiy moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarining ekonometrik tahlili va prognozlarini amalga oshirilgan.

OTMlarning moliyalashtirish tizimi ularning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashi, lekin mamlakatdagi iqtisodiy sharoit va boshqa omillar natijasida bu tizimda muammolar yuzaga kelishi mumkinligi ko'rib o'tilgan. Davlat byudjeti OTMlarni moliyalashtirishning asosiy manbai bo'lib, ayniqsa, rivojlanayotgan iqtisodiyotda va ijtimoiy dasturlarning moliyalashtirilishida ahamiyatli rol o'ynaydi. Ammo, bu holat ko'plab muhim muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Agar davlat va xususiy sektordan mablag'larni jalb qilish mexanizmi samarali ishlamas, tadqiqot va innovatsiyalarning rivojlanishi ta'minlanmaydi. OTMlar grantlar va xususiy sektordan mablag'larni jalb qilishda aniq va to'liq strategiyaga ega bo'lishi kerak. Grantlarni jalb qilish jarayonini yaxshilash uchun, maxsus guruhlar tashkil etish va o'ziga xos loyihalarni ishlab chiqish kerak. Ushbu guruhlar grantlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, aniq strategiyalar asosida ish olib borishi zarur.

Samarali OTMlar ko'proq mablag' olishi uchun bazaviy barchaga teng va natijaga bog'liq (samaradorlikka qarab) moliyalashtirish modelini joriy etish lozim. Quyida oliy ta'lim muassasalari bo'yicha reyting va KPI asosida mablag' ajratish holati 5 yil davomida jadval shaklida keltirilgan. Jadvalda har bir OTM uchun moliyalashtirishning qancha qismi KPI va reyting natijalariga bog'langan (foizda) ko'rsatiladi va izoh berilgan.

Jadval ma'lumotlari O'zbekiston milliy universiteti va Toshkent davlat yuridik universiteti KPI tizimini amalga joriy etish bo'yicha boshqalardan ilgarilab ketganligini ko'rsatadi. Samarqand davlat universiteti va Toshkent davlat tibbiyot universitetida bu jarayon sekinroq kechmoqda, sababi - KPI natijalarini aniq baholash mezonlari va raqamli boshqaruv infratuzilmasining sustligini ko'rsatadi. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti raqamli KPI tizimini rivojlantirishda texnik bazaning mavjudligi sababli tez sur'atda ilgarilamoqda. KPI ko'rsatkichlari aniq belgilanmagan, baholash mezonlari zaif. Davlat byudjeti ajratilishini OTM faoliyati (reytingi, tadqiqot, innovatsiya)ga bog'lash lozim.

Zamonaviy moliyaviy monitoring tizimlari va ERP (Enterprise Resource Planning) dasturlari joriy etilmaganligi sababli moliyaviy ma'lumotlarni avtomatlashtirish va real vaqtda kuzatish imkonsiz bo'ladi. Kelgusida bu muammolarni bartaraf qilish uchun moliyaviy hisobotlar, risqlarni baholash, manbalar monitoringi, zamonaviy texnologiyalar va kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha tizimli yangilashlar va amaliy qadamlar ko'rilishi kerak. Quyida 5ta O'zbekiston Oliy ta'lim muassasalari moliyaviy monitoring sohasida xorijiy OTMlar tajribalaridan foydalanishini ko'rib o'tamiz.

## 5-jadval

### Oliy ta'lim muassasalarida 2020–2024-yillarda reyting va KPI asosida mablag' ajratilganligi haqida ma'lumotlari<sup>30</sup>

Yil	TDYuU	TATU	O'zMU	TDTU	SamDU	Izoh
2020	10%	8%	12%	7%	6%	KPI va reyting natijalariga asoslangan moliyalashtirish boshlang'ich bosqichda, 90% byudjet teng taqsimlangan.
2021	15%	12%	18%	10%	9%	Mexanizm sinash asosida joriy etila boshladi. Etalon sifatida O'zMU faol.
2022	25%	20%	30%	18%	15%	KPI tizimi yaxshilandi, reyting asosida grant va qo'shimcha mablag'lar ajratilishi boshlangan.
2023	35%	28%	42%	25%	22%	Natijaga qarab moliyalashtirish ulushi sezilarli o'sdi. Moliyaviy havasaklik yaratila boshlangan.
2024	50%	40%	55%	35%	30%	Ta'lim sifatini oshirish va samaradorlikni baholash mezonlari joriy etilgan, KPI asosida moliyalashtirish ustuvorga aylangan.

Quyidagi jadvaldan ko'rib turganimizdek, horijiy tajribalar asosida OTMLlarda zamonaviy moliyaviy monitoring tizimlarini joriy etishda ERP platformalarini tatbiq qilingan, ilmiy va grant mablag'larining samaradorligini baholashga e'tibor qaratilgan hamda kadrlar salohiyatini muntazam ravishda oshirish kabi islohotlar amalga oshirilishi lozimligi asoslangan.

## 6-jadval

### OTMLlarda moliyaviy monitoring va xorijiy tajribalari<sup>31</sup>

№	O'zbekiston OTM	Xorijiy OTM	Xorijiy tajribaning mazmuni	O'rganiladigan jihatlar
1	Toshkent davlat yuridik universiteti	Harvard Law School (AQSH)	Avtomatlashtirilgan moliyaviy hisobot tizimi, real-time monitoring	Hisobot shaffofligi, avtomatlashgan tahlil va nazorat
2	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	MIT (AQSH)	ERP va budgeting software orqali real vaqtda xarajatlar nazorati	Texnik vositalar yordamida risqlarni kamaytirish, nazoratni kuchaytirish
3	O'zbekiston milliy universiteti	University of Oxford (UK)	Davlat, grant va xususiy mablag'larning diversifikatsiyasi, KPI tizimi	Mablag' manbalari bo'yicha KPI joriy etish
4	Toshkent davlat tibbiyot universiteti	Karolinska Institutet (Shvetsiya)	Ilmiy tadqiqot mablag'larining aniq monitoringi va audit tizimi	Grant va tadqiqot mablag'larini nazorat qilish
5	Samarqand davlat universiteti	University of Tokyo (Yaponiya)	Moliyaviy kadrlarning xalqaro malakasi, kam xarajatli samarali boshqaruv	Kadrlar malakasini oshirish, malaka dasturlarini tashkil qilish

<sup>30</sup> Muallif tomonidan amalga oshirilgan.

<sup>31</sup> Muallif tomonidan amalga oshirilgan.

DXSh mexanizmlari OTMga qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va ta’lim sifatini oshirishda katta imkoniyatlar yaratadi. OTMda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirish va infratuzilmani rivojlantirish imkoniyatlarini namoyon etadi.

### 7-jadval

#### 2020–2024 yillarda OTMlar tomonidan DXSh asosida amalga oshirilgan loyihalar<sup>32</sup>

№	OTM nomi	DXSh loyihasi nomi	Yil	Investor	Summa (mlrd so‘m)	Loyiha natijasi
1	Toshkent davlat texnika universiteti	Talabalar turar joyi qurilishi	2021	Xususiy developer kompaniyasi	45	500 o‘rinli turar joy, infratuzilma yaxshilangan
2	Тошкент давлат иктисодиёт университети	Innovatsion ta’lim markazi	2022	Mahalliy IT-kompaniya	18	Interaktiv o‘quv xonalari tashkil etilgan
3	Samarqand davlat universiteti	Yangi o‘quv binosi qurilishi	2022	Qurilish tashkiloti	35	3 qavatli zamonaviy o‘quv binosi
4	Andijon davlat universiteti	Laboratoriyalar qurilishi va jihozlanishi	2023	Xalqaro grant va xususiy sherik	12	STEM laboratoriyalar tashkil qilingan
5	Namangan davlat universiteti	Talabalar shaharchasi qurilishi	2024	Xususiy developer kompaniyasi	50	Talabalar uchun turar joy va sport maydonlari

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi 5 yil ichida O‘zbekistonning yetakchi 5 ta oliy ta’lim muassasasi davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini qo‘llash, ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish va moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish borasida muhim qadamlar qo‘ygan. Jami beshta loyiha amalga oshirilgan bo‘lib, ularning umumiy qiymati 160 mlrd so‘mni tashkil etadi. Eng katta investitsiya Namangan davlat universitetida talabalar shaharchasi qurilishiga yo‘naltirilgan (50 mlrd so‘m). Eng kichik loyiha esa Andijon davlat universitetidagi laboratoriya qurilishi (12 mlrd so‘m) bo‘lgan.

Quyidagi jadvalda OTMlarning 2020-2024 yillar davomida Jahon banki, YUNESKO, Erasmus+ kabi xalqaro tashkilotlar bilan moliyaviy hamkorligi buyicha ma’lumotlarni ko‘rib o‘tamiz.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Jahon banki bilan moliyaviy hamkorlikka asosan texnik ta’lim, innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlarga yo‘naltirilgan. Bu hamkorliklarning natijasi sifatida yangi laboratoriyalar, ta’lim platformalari va innovatsion loyihalar tashkil etilgan. Erasmus+ dasturi doirasida Yevropaning yetakchi universitetlari bilan hamkorlik mustahkamlandi, bu talabalar va akademik xodimlar uchun mobillik va ilmiy tadqiqotlar orqali tajriba almashish imkoniyatlarini yaratilgan.

<sup>32</sup> Muallif tomonidan amalga oshirilgan.

**OTMning 2020-2024 yillarda xalqaro tashkilotlar bilan  
moliyaviy hamkorligi<sup>33</sup>**

№	OTM nomi	Xalqaro tashkilot	Loyiha nomi	Yillar	Miqdor (mlrd so‘m)	Loyiha natijasi
1	Toshkent davlat texnika universiteti	Jahon banki	Texnik ta’limni rivojlantirish	2020–2024	50	Yangi laboratoriyalar va ta’lim platformalarini yaratish
2	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	Erasmus+	Ta’lim mutaxassisliklarini ishlab chiqish	2020–2024	25	Yevropa oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish
3	Samarqand davlat universiteti	YUNESKO	Innovatsion ta’lim dasturlari	2021–2024	30	Ilmiy tadqiqot va ta’lim standartlarini rivojlantirish
4	Andijon davlat universiteti	Jahon banki	Ta’lim va innovatsiyalar	2020–2024	35	Iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha grantlar olish
5	Namangan davlat universiteti	Erasmus+	Mobillik va ilmiy tadqiqotlar	2020–2024	40	Yevropa oliy ta’lim muassasalari bilan tajriba almashish

Strukturaviy mezonlarning ishlab chiqilgan tizimi universitetlarga grantlar, kontrakt ishlari va ichki investitsiyalar hajmini kengaytirish orqali moliyaviy mustaqillik darajasini xolisona baholash va maqsadli ravishda oshirish imkonini beradi.

**University Financial Sustainability Index (UFSI) ko‘rsatkichlari<sup>34</sup>**

№	Ko‘rsatkich nomi	Ko‘rsatkich mazmuni / tavsifi
1	Income Diversification Index (IDI)	OTM daromad manbalarining diversifikatsiya darajasi (byudjet, kontrakt, grant, x/h shartnomalar)
2	Expenditure Efficiency Index (EEI)	Xarajatlar mosligi va samaradorligi (operatsion xarajatlar tarkibi, ta’limga sarflar ulushi)
3	Capital Investment Ratio (CIR)	Infratuzilma va moddiy-texnik bazaga qayta sarmoyalar ulushi
4	Liquidity and Solvency Ratio (LSR)	Qisqa va uzoq muddatli moliyaviy muvozanat, likvidlik darajasi
5	Financial Risk Resistance Score (FRRS)	Tushumlar o‘zgarishidan kelib chiqadigan moliyaviy xavflarga chidamlilik (buffer, diversifikatsiya)
6	Academic Staff Support Ratio (ASSR)	Professor-o‘qituvchilarga to‘lanadigan maoshlar, rag‘batlar va investitsiyalar
7	Student Support and Inclusivity Ratio (SSIR)	Stipendiyalar, ijtimoiy grantlar, kam ta’minlangan talabalar uchun ajratilgan mablag‘lar
8	Transparency and Accountability Index (TAI)	Moliyaviy hisobotlar ochiqligi va jamoatchilik nazorati (shaffoflik darajasi)

<sup>33</sup> Muallif tomonidan amalga oshirilgan.

<sup>34</sup> Muallif ishlanmasi.

Ushbu indikatorlar asosida OTMning moliyaviy barqarorligi integral indeks ko‘rinishida baholanadi. Har bir ko‘rsatkich belgilangan vazn asosida umumiy indeksga ta’sir etadi. Indeksni hisoblash jarayonida yuqori ball (masalan, 100ga yaqin) OTMning moliyaviy jihatdan barqaror ekanini anglatadi. Mezonlar orqali ular o‘z mustaqillik darajalarini oshirish bo‘yicha aniq yo‘nalishlar belgilay oladilar. O‘quv-ilmiiy grantlar ulushini oshirish, xo‘jalik shartnomalarni kengaytirish, o‘z foydasidan sarmoya shakllantirish asos bo‘ladi. Bu esa moliyaviy ixtiyoriyligni kuchaytiradi.

Ishlab chiqilgan KPI-monitoring konsepsiyasi OTMlarning moliyaviy faoliyatini avtomatlashtirilgan holda kuzatish va baholash imkonini beradi. Uning natijasida OTMda har bir kafedra yoki bo‘lim darajasida xarajat-daromad balansini real vaqtda kuzatish imkoni bo‘ladi, samarasiz bo‘linmalar, byudjetdan ortiqcha sarflar yoki daromad salohiyati yetarli bo‘lmagan yo‘nalishlar niqlanadi, raqamli boshqaruv elementlarini keng joriy etish orqali inson omilidan xoli hisobotlar va qaror qabul qilish tizimi shakllanadi.

## 10-jadval

### KPI-monitoring tizimi konsepsiyasi<sup>35</sup>

№	Bo‘limlari	Maqsadlari
1	Ma’lumotlar manbalari	Buxgalteriya dasturlari (1S, SAP, Oracle ERP), ichki axborot tizimlari, byudjet va kontrakt tushumlari nazorat qilish
2	Tizimning funksional elementlari	KPIlarni avtomatik hisoblash, tahlil, prognoz, avtomatik ogohlantirish va hisobot tayyorlash
3	KPI ko‘rsatkichlar toifalari	Moliyaviy samaradorlik, daromadlar diversifikatsiyasi, sifat ko‘rsatkichlari, infratuzilma, ish unumdorligi
4	Texnologik yechimlar	Veb-interfeys, SQL bazasi, Python/Power BI, API integratsiya
5	Natijasi	Shaffoflik, hisobdorlik, samaradorlik, korrupsiyaning oldini olish

Ko‘rib turganimizdek, KPI-dastur orqali ma’lumotlar real vaqtda yangilanib boriladi. Har qanday xarajat, tushum yoki moliyaviy o‘zgarish yuz berganda, dastur uni avtomatik hisobga oladi va mehnat unumdorligi, xarajatlar strukturasi, ta’lim sifati va moliyaviy jadvallar KPI tizimida to‘planadi. Har bir fakultet, kafedra yoki xodim faoliyati aniq ko‘rsatkichlar asosida baholanadi. KPI tizimida har bir xarajatning maqsadi, yo‘nalishi va natijasi qayd etiladi. Masalan, muayyan mablag‘ texnika xaridi uchun ajratilgan bo‘lsa, u real amaliyotda qayerga sarflangani ko‘rsatiladi. KPI-monitoring tizimi nafaqat texnik vosita, balki samaradorlikka asoslangan boshqaruv madaniyatini shakllantiradi. Bu orqali universitetlar resurslardan oqilona foydalanib, milliy va xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishishi mumkin. Quyida iqtisodiy missiya va moliyaviy integratsiya modeli konsepsiyasini qo‘llash OTMlarga strategik funksiyalarni bajarish jihatlari ko‘rib o‘tiladi.

Tadqiqot ishining navbatdagi bosqichida oliy ta’lim muassasalari kapital rentabellik (ROE) koeffitsiyenti va unga ta’sir etuvchi omillarning grafik matritsa va skatter tasvirlari keltirilgan.

<sup>35</sup> Muallif ishlanmasi.

Ekonometrik tadqiqot bo'yicha O'zbekistonda mavjud oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy menejmenti samaradorligiga ta'sirini o'zaro ta'sirni baholashda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (<https://edu.uz/uz>) hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi (<https://stat.uz/uz/>)ning 2016–2024-yillarni o'z ichiga olgan jami kuzatuvlar soni 31 tadan iborat choraklik ma'lumotlardan foydalanildi.

Ekonometrik model uchun to'plangan ma'lumotlar ko'p omilli vaqtli qatorlar asosida shakllantirilganligi uchun biz tadqiqotni ishlab chiqishda ko'p omilli chiziqli tenglamalar (LS) modeli hamda noxiziqli Strukturaviy tenglamalarni modellashtirish SEM (Structural equation modeling) modellarini qo'llanildi.

Quyida ekonometrik model bo'yicha barcha o'zgaruvchilar tasnifi keltirilgan.

### 11-jadval

#### Ekonometrik model bo'yicha o'zgaruvchilarining tasnifi<sup>36</sup>

N <sub>o</sub>	O'zgaruvchilar nomi	Tasnifi	Logorifmik qiymati
1	Oliy ta'lim muassasalari kapital rentabellik (ROE) koeffitsiyenti	Natijaviy o'zgaruvchi	<i>LOGROE</i>
2	Oliy ta'lim muassasalari xodimlarga qilingan investitsiyalar hajmi	Mustaqil o'zgaruvchi	<i>LOGInvest_HE_employe</i>
3	Oliy ta'lim muassasalari talabalar to'lov shartnomalari mablag'lari hajmi (mlrd so'm)	Mustaqil o'zgaruvchi	<i>LOGFund_Paym_HE</i>
4	Milliy iqtisodiyotda inflyatsiya darajasi	Mustaqil o'zgaruvchi	<i>LOGIninfl_rate</i>
5	Oliy ta'lim muassasalarida raqamli parametrlar soni (mingta)	Mustaqil o'zgaruvchi	<i>LOGDig_par</i>

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida ko'p omilli chiziqli (LS) modelidan foydalangan holda oliy ta'lim muassasalari kapital rentabelligi (ROE) koeffitsiyenti va unga ta'siri etuvchi omillarning regression modeli ishlab chiqildi.

### 12-jadval

#### Oliy ta'lim muassasalari kapital rentabelligi (ROE) koeffitsiyenti va unga ta'sir etuvchi omillarning regression tenglama ko'rsatkichlari<sup>37</sup>

<i>LOGROE</i>	<i>Coef.</i>	<i>St.Err.</i>	<i>t-value</i>	<i>p-value</i>	<i>[95% Conf</i>	<i>Interval]</i>	<i>Sig</i>
<i>LOGInvest_HE_employe</i>	.45	.103	4.39	0	.239	.661	***
<i>LOGFund_Paym_HE</i>	1.077	.198	5.43	0	.669	1.484	***
<i>LOGIninfl_rate</i>	-.917	.142	-6.46	0	-1.209	-.625	***
<i>LOGDig_par</i>	.543	.127	4.26	0	.281	.805	***
<i>Constant</i>	-1.337	1.007	-1.33	.096	-3.406	.732	*
<i>Mean dependent var</i>		10.297	<i>SD dependent var</i>		0.697		
<i>R-squared</i>		0.964	<i>Number of obs</i>		31		
<i>F-test</i>		197.248	<i>Prob &gt; F</i>		0.000		
<i>Akaike crit. (AIC)</i>		-28.496	<i>Bayesian crit. (BIC)</i>		-21.326		

\*\*\*  $p < .01$ , \*\*  $p < .05$ , \*  $p < .1$

<sup>36</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.


<sup>37</sup> Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

Ko'p omilli chiziqli (LS) modeli formula ko'rsatkichlari quyida keltirilgan.

$$LOGROE = -1.33 + 0.44 LOG Invest\_HE\_empoye + 1.07 LOG Fund\_Paym\_HE - 0.91 LOG Ininfl\_rate + 0.54 LOG Dig\_par \quad (2)$$

Oliy ta'lim muassasalari xodimlarga qilingan investitsiyalar hajmining bir foizga ortishi natijasida oliy ta'lim muassasalari kapital rentabellik (ROE) koeffitsiyenti 0.45 %ga ortishiga erishiladi. Oliy ta'lim muassasalari talabalar to'lov shartnomalari mablag'lari hajmining bir foizga ortishi natijasida oliy ta'lim muassasalari kapital rentabellik (ROE) koeffitsiyentining 1.07 %ga ortishiga olib keladi. Milliy iqtisodiyotda inflyatsiya darajasining bir foizga ortishi natijasida oliy ta'lim muassasalari kapital rentabellik (ROE) koeffitsiyentining 0.91% ga kamayishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida raqamli parametrlar soning bir foizga ortishi natijasida oliy ta'lim muassasalari kapital rentabellik (ROE) koeffitsiyentining 0.54 %ga ortishiga erishiladi.

Shuningdek, SEM regression modeli chizma ko'rinishi, quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.



**5-rasm. Oliy ta'lim muassasalari sof foydasi hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida SEM modeli sxematik ko'rinishi<sup>38</sup>**

1. Ekonometrik tadqiqot bo'yicha ko'p omilli chiziqli (LS) tenglama modeli hamda SEM ekonometrik model natijalari shuni ko'rsatdiki, Oliy ta'lim muassasalari xodimlarga qilingan investitsiyalar hajmi, oliy ta'lim muassasalari talabalar to'lov shartnomalari mablag'lari hajmi, milliy iqtisodiyotda inflyatsiya darajasi hamda oliy ta'lim muassasalarida raqamli parametrlar soni oliy ta'lim

<sup>38</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

muassasalari kapital rentabellik (ROE) koeffitsiyenti o'rtasidagi mustahkam va sezilarli bog'liqlikni ko'rsatgan. Ekonometrik model natijalariga ko'ra (H1) alternativ gipotezaning tasdiqlanganligini ko'rsatadi.

2. Ta'lim muassasalari xodimlarga investitsiyalar hajmining ta'sirining ahamiyati. Oliy ta'lim muassasalari o'z xodimlariga investitsiyalarni ko'paytirishi orqali o'qitishni rivojlantirish hamda raqobatbardosh ilmiy o'lchovi sifatida sezilarli o'sishga ishora qiladi. Ushbu natijaga ko'ra inson kapitaliga investitsiya kiritish nafaqat akademik sifat, balki institutsional rentabellikga ham o'z samarasini berishini tasdiqlaydi. Ushbu qo'llab-quvvatlov ta'lim sektorida yuqori moliyaviy samaradorlik va innovatsiyalarga bevosita hissa qo'shishidan dalaolat beradi.

3. Talabalar uchun to'lov shartnomalaridagi mablag'lar hamda ta'lim muassasalari kapital rentabellik ROE ko'rsatkichi o'rtasidagi bog'liqlik yuqori koeffitsiyent bilan ta'sir etadi. Ushbu natijaga ko'ra talabalarning to'lov manbalaridan tushadigan daromadning oshishi barcha o'zgaruvchilar orasida ROEga eng kuchli ijobiy ta'sirga erishishga turtki bo'lgan. Unga ko'ra talabalar talabi va ro'yxatga olish sifatiga ega bo'lgan mustahkam ta'lim daromadi moliyaviy mustahkamlik bilan izohlanadi. Bu ta'lim muassasida zarur ta'lim dasturlarini taqdim etish va o'qitish orqali oliygohlarda moliyaviy barqarorlikni saqlagan holda yuqori daromad rentabelligini oshirishga olib keladi.

4. Inflyatsiya darajasining oliy ta'lim muassasalari kapital rentabellik koeffitsiyentiga teskari ta'sirini baholash. Mintaqadagi yuqori inflyatsiya ko'rsatkichlarining yuzaga kelishi nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar barqarorlik muvozanatini izdan chiqaradi balki ta'lim sektori institutsional rentabellikni pasaytirishga ham olib keladi hamda oliy ta'lim muassasalari operatsion xarajatlarning oshishiga sabab bo'ladi.

5. Raqamli parametrlarning oliy ta'lim tizimi kapital rentabellik koeffitsiyentiga ta'sirini baholash. Oliy ta'lim muassasalari raqamli texnologiyalarning rivojlanishi xususan onlayn platformalar, raqamli ta'lim resurslari hamda ma'muriy texnologiyalar kabi raqamli parametrlardan yanada ko'p foydalanish natijasida ularning moliyaviy samaradorlik va daromadlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sirini namoyon etadi. Bu shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limdagi raqamli transformatsiya bugun davr kuchini aks ettiradi. Raqamli innovatsiyalarni joriy qilish natijasida oliy ta'lim muassasalar ROEni yaxshilash bilan birga samaradorlik, kengayish va talabalarning faolligini oshirishga zamin yaratadi. Ushbu ta'lim va moliyaviy rivojlanish strategiyasi sifatida raqamli infratuzilmaga investitsion amaliyotlarning yanada ortishiga xissa qo'shadi.

6. Tahliliy ekonometrik model natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida maqsadli ichki strategiyalar, xususan ushbu tizimda ishlovchi xodimlarga qilingan investitsiya va raqamli transformatsiyaning rivojlanishi mustahkam daromad manbai bo'lishi bilan bir qatorda moliyaviy daromadlarni sezilarli darajada oshirishga olib keladi.

Dissertatsiya ishining «**Zamonaviy universitetlar taraqqiyot tendensiyalari sharoitida ular yangi moliyaviy modelini shakllantirish**

**yo'llari»** deb nomlangan to'rtinchi bobida «Universitet 4.0» formatidagi universitet faoliyatini diversifikatsiyalash sharoitida yangi moliyaviy modelni shakllantirish istiqbollari, akademik va ilmiy-innovatsion faoliyatini modernizatsiyalash orqali universitetlarda «Xarajatlar kasalligi» fundamental muammosini bartaraf qilish yo'llari, akademik faoliyatni raqamlashtirish universitetlar moliyaviy salohiyatini yuksaltirishning istiqbolli yo'nalishi, hamda oliy ta'lim muassasalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish orqali xorijiy investitsiyalar va grantlarni keng jalb qilishning istiqbolli yo'nalishlari keltirilgan.

«Universitet 4.0» formatidagi universitet faoliyatini diversifikatsiyalash sharoitida yangi moliyaviy modelni shakllantirish zamonaviy oliy ta'limni transformatsiya qilish va uning moliyaviy ustuvorliklarini qayta ko'rib chiqish nuqtai nazaridan juda dolzarbdir. Quyida «Universitet 4.0» formatida faoliyatni diversifikatsiyalash sharoitida yangi moliyaviy modelni an'anaviy moliyaviy model bilan solishtiruvchi jadvalni ko'rib o'tamiz.

### 13-jadval

#### Yangi moliyaviy modelni shakllantirishning solishtirma tahlili<sup>39</sup>

№	Yo'nalishlar	An'anaviy universitet modeli	«Universitet 4.0» formatidagi yangi model
1	Moliyalashtirish manbai	Asosan davlat byudjeti	Diversifikatsiyalangan: byudjet, to'lovlar, startap, grant, investitsiya
2	Moliyaviy mustaqillik	Cheklangan	Yuqori darajada: avtonom byudjet, faol boshqaruv
3	Daromad shakllanishi	Talabalar to'lovlari, davlat buyurtmasi	Ta'lim eksporti, ilmiy konsalting, litsenziya, IP sotuvi
4	Xarajatlar siyosati	Reja asosida, byurokratik	Strategik maqsadlarga moslashgan, tezkor va samarali
5	Tadbirkorlik faoliyati	Mavjud emas yoki cheklangan	Startaplar, texnoparklar, biznes inkubatorlar
6	Innovatsion moliyalashtirish	Qo'llanilmaydi	Endaument fondlar, venchur sarmoya, kraudfanding
7	Raqamli moliyaviy yechimlar	Aniq emas	Blokcheyn, Big Data tahlil, elektron CRM/ERP tizimlar
8	Moliyaviy barqarorlik	Tashqaridan bog'liq	Ichki resurslar hisobiga barqarorlik
9	Xalqaro hamkorlik	Cheklangan	Faol investitsiya va ta'lim eksporti orqali kengayotgan
10	Moliyaviy natijalarga yondashuv	Idoralararo hisobotga yo'naltirilgan	Natijalarga asoslangan boshqaruv (performance-based)

<sup>39</sup> Muallif tomonidan amalga oshirilgan.

Yuqoridagi jadvalga asosan, «Universitet 4.0» formatidagi yangi moliyaviy modelning an'anaviy modelga nisbatan asosiy farqlari va afzalliklari haqida tahlil qilish mumkin. An'anaviy modelda davlat byudjetiga to'liq bog'liq bo'lgan holda, universitetlar asosan davlatning o'zi ta'lim va ilmiy tadqiqotlarga mablag' ajratadi. «Universitet 4.0» modelida moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyalanadi, ya'ni universitetlar faqat davlat mablag'lari bilan cheklanmay, shuningdek, xususiy sektordan investitsiyalar, startaplar, grantlar va to'lovlar orqali moliyaviy muvaffaqiyatga erishishadi. Quyida «Universitet 4.0» formatidagi yangi moliyaviy model doirasida daromad manbalarini diversifikatsiyalash yo'nalishlarini ko'rib o'tamiz.

#### 14-jadval

#### Oliy ta'lim muassasalari daromad manbalarini diversifikatsiyalash yo'nalishlari<sup>40</sup>

№	Daromad manbasi	Qisqacha tavsif	Manbalari
1	Davlat byudjeti mablag'lari	Asosiy an'anaviy manba; strategik yo'nalishlarga ajratiladi	O'quv-tarbiya jarayoni, ilmiy loyihalar
2	Kontrakt asosidagi ta'lim	Talabalardan olinadigan to'lov-kontrakt mablag'lari	Bakalavriat, magistratura, ikkinchi mutaxassislik
3	Ilmiy grantlar va tadqiqot loyihalari	Ilmiy faoliyat uchun ichki va tashqi grantlar jalb etish	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Erasmus+, Horizon Europe
4	Tijorat faoliyati	Universitet huzurida tijorat yo'nalishlarini tashkil etis	Qo'shimcha kurslar, ijara, konsalting xizmatlari
5	Homiylik va sarmoyalar	Biznes sheriklar va homiylardan olinadigan mablag'lar	Korporativ sheriklik, endowment fondlar
6	Xalqaro hamkorlik	Chet el universitetlari va tashkilotlar bilan hamkorlik orqali mablag' jalbi	British Council, DAAD, xalqaro ta'lim dasturlari

Jadvaldan ko'rib turganimizdek, oliy ta'lim muassasalari moliyaviy mustaqillikka erishishi uchun barcha manbalardan balanslangan va strategik foydalanish zarur. Aniq maqsadli reja va institutsional quvvat universitet moliyaviy modelining barqarorligini ta'minlaydi.

#### XULOSA

Oliy ta'lim muassasalari moliyasi tizimini rivojlantirish uslubiyotini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirish natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

<sup>40</sup> Muallif tomonidan amalga oshirilgan.

1. Oliy ta'lim moliyasi - ta'lim sifatini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va ta'lim muassasalari barqarorligini ta'minlashning asosiy moliyaviy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Moliya tizimi zamonaviy shart-sharoitlarda bozor munosabatlariga mos ravishda tashkil etilmoqda, moliyaviy boshqaruvning institutsional va huquqiy asoslari takomillashmoqda. Jahonning yetakchi universitetlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, avtonomiya, diversifikatsiya, raqamli moliyaviy instrumentlardan foydalanish moliyani samarali tashkil qilishga xizmat qiladi.

2. Zamonaviy moliyalashtirish konsepsiyalari (normative per capita moliyalashtirish, performance-based funding, grants-based systems) oliy ta'lim muassasalarida faoliyat samaradorligini baholash va resurslar taqsimotini adolatli tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

3. Moliyaviy resurslar shakllanishi va ularning boshqarilishida hanuzgacha markazlashgan va byurokratik yondashuv ustunlik qilmoqda. Xarajatlarni moliyalashtirish amaliyotida samaradorlikka erishishda muvaffaqiyatli tajribalar mavjud bo'lsa-da, ular barcha oliy ta'lim muassasalariga xos emas. Moliyalashtirishning funksional elementlari - rejalashtirish, monitoring, baholash - hali ham to'liq joriy qilinmagan, bu moliyaviy natijalarga ta'sir ko'rsatmoqda.

4. Mavjud moliyalashtirish mexanizmida xarajatlar rejalashtirilishida samaradorlik va natijadorlik indikatorlaridan kam foydalanilayotgani aniqlandi. Bu moliyaviy qarorlarni qabul qilishda strategik yondashuv yetishmasligini ko'rsatadi.

5. Zamonaviy moliyaviy instrumentlardan - moliyaviy outsorsing, tender tizimi, xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida faoliyat yuritish imkoniyatlari universitetlarga moddiy manbalarni diversifikatsiya qilish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

6. Moliyaviy tizimda kuzatilayotgan muammolarni hal etishda innovatsion yondashuv va zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish talab etiladi. Moliyaviy monitoring tizimlari oliy ta'lim muassasalarida samarali boshqaruv mexanizmi sifatida joriy etilishi lozim. Byudjet menejmenti natijadorlik ko'rsatkichlari bilan bog'liq holda baholanishi, ekonometrik tahlillar asosida prognozlashtirilishi samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

7. «Universitet 4.0» konsepsiyasi doirasida yangi moliyaviy modelni shakllantirish universitetlarning mustaqilligi va raqobatbardoshligini oshiradi. Baumol va boshqa mualliflarning «Xarajatlar kasalligi» konsepsiyasi universitetlarda resurslardan oqilona foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Akademik faoliyatni raqamlashtirish, innovatsion yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlash va grantlarni jalb etish moliyaviy salohiyatni oshiradi va universitetlarning jahon miqyosidagi nufuzini mustahkamlaydi.

8. Baumol, Bouen va Rubinshteynning «Xarajatlar kasalligi» nazariyasi shundan dalolat beradiki, ta'lim xarajatlari tabiiy ravishda o'sib boradi.

Universitetlar bu muammoni innovatsion yechimlar - raqamli ta'lim, aralash o'quv formatlari, masofaviy xizmatlar orqali yumshatishlari mumkin.

9. Akademik faoliyatni raqamlashtirish ta'lim sifatini yaxshilash bilan bir qatorda, xarajatlarni tejash, daromad manbalarini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Xorijiy investitsiyalar va grantlarni keng jalb etish orqali universitetlar moliyaviy barqarorlikka erishishi mumkin. Bu uchun xalqaro reytinglardagi o'rnini oshirish, xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish zarur.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSC 22/29.12.2023.I.175.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
ТАШКЕНТСКОМ МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**КАРЛИБАЕВА ГУЛШАТ ХОЖАБАЕВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ФИНАНСИРОВАНИЯ  
ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ**

**08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук (DSc)**

**город Ташкент – 2025 год**

Тема диссертации на соискание учёной степени доктора (DSc) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.I.PhD/Iqt3780.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета ([www.tiu.uz](http://www.tiu.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)).

**Научный руководитель:** Бузрукхонов Сарвархон Мунаввархонович  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Бурханов Ақтам Усманович  
доктор экономических наук, профессор

Шеров Алишер Бакбергенович  
доктор экономических наук, профессор

Ишманова Динара Нурмамадовна  
доктор экономических наук, доцент

**Ведущая организация:** Самаркандский институт экономики и сервиса


Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.22/29.12.2023.I.175.01 при Ташкентском международном университете «18» 10 2025 г. в 10<sup>00</sup>. Адрес: 100114, г. Ташкент, ул. Кичик халка йули, 7. Тел.: (99895) 131-55-55; факс: (99895) 131-55-55; e-mail: [info@tiu.uz](mailto:info@tiu.uz)


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского международного университета (зарегистрирована под номером 92). Адрес: 100114, г. Ташкент, ул. Кичик халка йули, 7. Тел.: (99895) 131-55-55; факс: (99895) 131-55-55; e-mail: [info@tiu.uz](mailto:info@tiu.uz)


Автореферат диссертации разослан «26» 09 2025 г.

(Реестр протокола рассылки № 47 от «02» 08 2025 г.).



  
**Н.Х. Жумаев**  
Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор экономических наук,  
профессор

  
**А.Т. Абсаламов**  
Ученый секретарь Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
доктор экономических наук, доцент

  
**Д.А. Рахмонов**  
Председатель Научного семинара  
при Научном совете по  
присуждению ученых степеней,  
доктор экономических наук,  
профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (DSc))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** Согласно опыту развитых стран мира, эффективные подходы к финансированию высших учебных заведений способствуют укреплению их независимости, обеспечению устойчивости и инновационного развития. Это, в свою очередь, подчёркивает необходимость пересмотра методологии финансирования университетов с учётом международной практики и разработки национальных моделей. Системы финансирования в европейских странах значительно различаются: в Германии, Франции, Финляндии, Норвегии, Австрии и Польше высшее образование полностью финансируется государством, тогда как в Нидерландах и Италии оно частично оплачивается частным сектором; при этом в Норвегии образование остаётся бесплатным для всех. Уровень государственных расходов на высшее образование также неодинаков: в Норвегии - 1,7 % ВВП, в Финляндии - 1,6 %, в Германии - 1,2 %, в США - 0,9 %, где частное финансирование играет важную роль. В Узбекистане, по состоянию на 2024 год, государственные расходы на высшее образование составляют 0,4-0,45 % ВВП, что свидетельствует о наличии потенциала для увеличения инвестиций в образование.

Мировая практика показывает, что для развития финансирования высших учебных заведений и обеспечения их устойчивости решающее значение имеет внедрение современных финансовых инструментов и инновационных подходов к финансовому управлению. Ведущие университеты переходят от традиционной зависимости от государственных средств к многоисточниковой системе финансирования. В такой системе гармонично сочетаются государственный бюджет, инвестиции частного сектора, доходы от обучения на контрактной основе, международные гранты, благотворительные фонды и средства от исследовательских проектов. Через развитие механизмов государственно-частного партнёрства университеты расширяют сотрудничество с частными инвесторами в обновлении инфраструктуры, создании инновационных лабораторий и технопарков, реализации научно-исследовательских проектов. Особенно активно формируются стратегические альянсы с отраслевыми университетами и корпоративными партнёрами, что способствует приведению качества и содержания образования в соответствие с требованиями рынка. Кроме того, внедрение моделей финансирования, основанных на результативности, позволяет распределять ресурсы в зависимости от образовательных и научных достижений. Это усиливает конкурентную среду между университетами и стимулирует рост их стратегической эффективности. Университеты, исходя из собственных возможностей, стремятся укреплять финансовую самостоятельность за счёт благотворительных фондов, эндаументов и краудфандинговых платформ. Подобные механизмы привлечения средств особенно способствуют укреплению связей с выпускниками, местными сообществами и неправительственными организациями.

В Узбекистане развитие финансирования высших учебных заведений требует использования научно обоснованных подходов, которые объединяют в себе международный опыт и национальные особенности. Среди актуальных задач – диверсификация источников финансирования, внедрение моделей, ориентированных на результат, анализ эффективности деятельности университетов, а также оформление сотрудничества с частным сектором и международными фондами.

Несмотря на то что государство уделяет приоритетное внимание высшему образованию и объём бюджетных ассигнований увеличился с 2,3 трлн сумов в 2020 году до 5,5 трлн сумов в 2024 году, их доля в ВВП остаётся относительно низкой - с 0,27 % в 2020 году до 0,36–0,38 % в 2024 году, что свидетельствует о необходимости дальнейшего наращивания инвестиций в человеческий капитал.

Указ Президента Республики Узбекистан от 10 октября 2017 года № ПП-3355 «Об утверждении Концепции развития высшего образования», Постановление Президента от 19 марта 2020 года № ПП-4889 «О развитии высшего образования и формировании инновационной системы обучения», Постановление Президента от 22 января 2021 года № ПП-4974 «О совершенствовании механизмов финансирования и регулирования деятельности высших учебных заведений», Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 мая 2022 года № 261 «О нормативно-правовых актах в сфере высшего образования для высших учебных заведений», Постановление Президента от 6 июля 2022 года № ПП-307 «Об организационных мерах по реализации стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022–2026 годы», а также Указ Президента от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» и другие нормативно-правовые акты, регулирующие данную сферу, служат правовой основой для выполнения задач, поставленных в рамках настоящего диссертационного исследования и в определённой мере способствуют реализации его результатов.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.** Научно-практические исследования, посвящённые совершенствованию методологии финансирования высших учебных заведений, проводятся международными организациями, ведущими университетами и исследовательскими центрами мира, в том числе UNESCO<sup>41</sup> (Higher Education in a Changing World), OECD<sup>42</sup> (Organisation for Economic Co-operation and

---

<sup>41</sup> UNESCO (Higher Education in a Changing World), <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000203185>

<sup>42</sup> Organisation for Economic Co-operation and Development, <https://www.oecd.org/en.html>

Development), European Commission <sup>43</sup> - Education and Training, Asian Development Bank Institute <sup>44</sup>, University of Oxford <sup>45</sup>, Harvard University <sup>46</sup>, Maastricht University <sup>47</sup>, Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики»<sup>48</sup> Российская академия народного хозяйства и государственной службы при Президенте РФ (РАНХиГС) <sup>49</sup>, Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова (МГУ) <sup>50</sup>, Институт экономики Российской академии наук <sup>51</sup>. Эти исследования формируют важную научную базу для анализа современных подходов к финансированию высшего образования и их адаптации в национальных системах.

В научных исследованиях, проведённых в мире по совершенствованию методологии финансирования высших учебных заведений, в частности, получены следующие научные результаты:

на международном уровне разработаны методические рекомендации по финансированию, подотчётности и обеспечению качества в высшем образовании (CHEA – Council for Higher Education Accreditation <sup>52</sup> США); разработана методика повышения финансовой самостоятельности, автономии европейских университетов и качества образования (EUA – European University Association <sup>53</sup>); определены критерии финансирования и обеспечения качества в высшем образовании (INQAANE – International Network for Quality Assurance Agencies in Higher Education <sup>54</sup>); разработан механизм финансовой устойчивости в сфере образования, защиты прав преподавателей и привлечения инвестиций (Education International); созданы исследования и грантовые программы по вопросам равенства и финансирования в высшем образовании (Lumina Foundation); проведена оценка качества образования, анализ моделей финансирования и финансовых показателей университетов (Times Higher Education (THE) & QS Intelligence Unit).

Международная практика показывает, что по вопросам совершенствования теоретических и методологических основ управления финансовыми ресурсами в высших учебных заведениях ведутся исследования по следующим приоритетным направлениям. В частности: расширение финансовой самостоятельности высших учебных заведений, самостоятельное распределение бюджетных средств и диверсификация источников доходов; финансирование, ориентированное на результат, распределение ресурсов в зависимости от эффективности образовательной и научной деятельности и механизмы финансирования на основе KPI; партнёрство с частным сектором;

---

<sup>43</sup> EC Education and Training, [https://commission.europa.eu/topics/education-and-training\\_en](https://commission.europa.eu/topics/education-and-training_en)

<sup>44</sup> ADB Institute, <https://www.adb.org/adbi/main>

<sup>45</sup> University of Oxford, <https://www.ox.ac.uk/>

<sup>46</sup> Harvard University, <https://www.harvard.edu/>

<sup>47</sup> Maastricht University, <https://www.maastrichtuniversity.nl/>

<sup>48</sup> Rossiya Milliy tadqiqot universiteti «Oliy iqtisod maktabi», <https://www.hse.ru/>

<sup>49</sup> RANXiGS, <https://lib.ranepa.ru/ru/>

<sup>50</sup> Moskva davlat universiteti, <https://msu.uz/>

<sup>51</sup> RAN iqtisodiyot instituti, <https://inecon.org/>

<sup>52</sup> CHEA - Council for Higher Education Accreditation (USA), <https://www.chea.org/>

<sup>53</sup> European University Association, <https://www.eua.eu/>

<sup>54</sup> International Network for Quality Assurance Agencies in Higher Education, <https://www.inqaah.org/>

активное бюджетирование и финансовое планирование; повышение финансовой прозрачности и подотчётности; внедрение цифровых и финансово-информационных систем; адаптация к международным финансовым стандартам.

**Степень изученности проблемы.** Концептуальные основы совершенствования методологии финансирования высших учебных заведений, его экономическая сущность и значение исследованы в ряде научных работ зарубежных учёных-финансистов, в частности Мартин Троу, Юрген Эндерс, Дж. К. Ван Хорн, Дж. М. Вахович, Мэри Кэннинг, Ю. Бригхем, В.В. Чеха<sup>55</sup>, В.М. Филиппова, К.А. Белокрылова, Л. Гапенски, И.А. Бланка, Г.А. Лукичева, И.Я. Лукасевича, В.В. Ковалева<sup>56</sup>. Вопросы, связанные с финансами высших учебных заведений нашей страны, изучались рядом узбекских экономистов, в том числе С.С. Гуломовым, С.М. Бузрукхоновым, Т.С. Маликовым, Н.Х. Джумаевым, М. Саидовым, Б.Э. Тошмуродовой, Н.Э. Жияновой, М.М. Ташходжаевым, О.О. Олимжоновым, С.Э. Элмирзаевым, А. Бурхановым, О.Н. Хамдамовым, М.П. Эшовым, Ш.А. Якубовым, А. Ходжаевым, Н.Р. Турсуновой<sup>57</sup> в их научных исследованиях.

В научных трудах А.А.Махмудова осуществлён теоретический подход к вопросам совершенствования механизма формирования и управления

---

<sup>55</sup> Martin Trow. Twentieth-Century Higher Education: Elite to Mass to Universal. Johns Hopkins University Press. 2010. 640 b. Jürgen Enders. Higher Education in a Globalising World: International Trends and Mutual Observation. Springer, Higher Education Dynamics. 2002.362 b. Dj. K. Van Horn. Osnovi upravljenja finansami: [Per. s angl.]. - Moskva: Finansi i statistika, 1997. - 799 b. Mary Canning Higher Education Financing in the New EU Member States. Washington, D.C.: The World Bank, 2007 219 b. Vaxovich Dj.M. Osnovi finansovogo menedjmenta. Izdatelstvo: Vilyams.2011. 1232 s. Yu.Brigxem.Finansoviy menedjment. Piter. 2016. 978-5-496-00117-5, 978-5-496-02423-5. <https://www.livelib.ru/author/112750/top-yudzhin-f-brighem>. Chexa V. V. Finansirovaniye vysshego obrazovaniya v Rossii. Uchebnoye posobiye. M: .Izd. Yustitsinform, 2018. 222 b.

